

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Akbarova Shaxzoda Alisher qizi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
Universiteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

“Ayollar hayotdan rozi bo'lib yashashi uchun
sidqidildan xizmat qilishga tayyormiz”

SHAVKAT MIRZIYOYEV

Annotatsiya:

ushbu maqolada so'ngi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishning qonuniy asoslari va ularning huquq va erkinliklarini har tomonlama kafolatlanishi, tazyiq va zo'rvonlikning barcha shakllaridan himoya qilinishini taminlash davlatimiz oldida turgan ustuvor vazifalardan biri ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, inson huquq va erkinliklari, ayollar huquqlari, gender tengligi, ayollarning teng huquqlilik prinsipi, qonun hujjatlari, ijtimoiy huquqlar, oila kodeksi, mehnat kodeksi.

Ayollar kelajak tarbiyachilaridir shuning uchun ham ularga alohida e'tibor har bir davrning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbari tomonidan bugungi kunda ayollarga qaratilayotgan etibor, ularga nisbatan qilinayotgan tazyiq va zo'rvonlikka keskin munosabatda bo'linayotgani e'tirofga sazovordir. Xotin-qizlarni huquqlari milliy qonunchiligimizda yuksak darajada e'tirof etib o'tilgan hamda ularni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslari yetarli darajada mavjuddir. Bunga yaqqol misol sifatida bosh qomusimiz bo'lmish konstitutsiyamizning 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi qonun loyihasining O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, jinsi, irqi, millati, dini, etiqodi, ijtimoy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengligining belgilanganligini yoki 58- moddasiga muvofiq xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanligini, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda hamda jamiyat va davlat hayoting boshqa sohalarida teng imkoniyatni taminlashi belgilab qo'yilganini yoki aynan xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan



himoya qilishga doir qonun loihadini qabul qilganini va buni amalga oshirish uchun turli dasturlar ishlab chiqayotganini ko'rishimiz mumkin.

“Ayollar muammosi” o'zi nima? 68% maktab qizlarining kasb tanlashda mustaqillik darajasi pastligi nimani anglatadi?

XX - XXI asrlarda jamiyatning dolzarb muammolaridan biri sifatida gender tenglik masalalarini qayta ko'rib chiqish va uni amaliy o'zgartirish masalalari katta o'rin egallagan. Ushbu o'zgarishlarning asosiy yo'nalishi ayollarning mehnat va ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida tutgan o'rni va roliga yangicha qarashda, har ikkala jins vakillarining motivlari, manfaatlari, pozitsiyalari va faoliyatining uyg'unligi g'oyasidadir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda gender tengsizligini bartaraf etish bo'yicha ishlar faollashdi. Gender siyosati muammolari, gender tadqiqotlari, ayniqsa, “Ayollar muammosi” bilan bog'liq masalalar rasmiy darajada davlat siyosatining ustuvor masalalari qatoriga kiritilgan. Xotin-qizlarning mavqeyini oshirish, ayniqsa, ularning huquqlarini qonuniy hujjatlari orqali himoya qilish va kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Zamonaviy o'smirlarning kasb tanlash muammosini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, maktab bitiruvchilari gender xususiyatlarini hisobga olgan holda keyingi kasbiy yo'nalishlarni belgilash va rejalashtirishda kattalarning yordamiga muhtoj. Bu kabi holatda mahalla, oila va ta'lim muassasining hamkorligi yetakchi o'rinni egallaydi.

Sandra Bemning "Erkaklik, ayollik va shaxsning gender turi" usuli, J. Gollandning shaxsiyatning professional turini aniqlash uchun o'zgartirilgan usuli, E. A. Klimov tomonidan differensial diagnostika so'rovnomasi asosida olingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda maktab o'quvchilarining aniq kasbiy rejasi yo'q, ularning aksariyati (68%) kasb tanlashda mustaqillik darajasi pastligini ko'rsatmoqda.

Natijalarga ko'ra, yigitlar orasida mehnatni kasbiy taqsimlash masalalarida gender stereotiplariga amal qilish darajasi 70,8 foizni tashkil etadi. Qizlar mehnat taqsimoti bo'yicha ko'proq liberal g'oyalarga ega: ular 42,3 foiz kasblarni "erkak" va "ayol" ga taqsimlashdagi stereotiplarni hozirda ahamiyatsiz deb hisoblaydi. Tadqiqot jarayonida gender xususiyatlar asosida o'quvchilarning kasb tanlashdagi afzalliklari aniqlanib olinmoqda.

Gender ijtimoiylashuv maktab o'quvchilarining rivojlanishi va moslashuvi jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, shaxsiy va kasbiy sohalarda o'zini o'zi belgilashga yordam beradi.



O'smirlarning gender ijtimoiylashuvini hisobga olish bolaning kasb tanlash istiqbollarini amalga oshirish ichki tayyorlikni shakllantirishga yordam beradi. Bunda gender yondashuv asosida o'quvchi-yoshlarni kasbiy yo'naltirishga qaratilgan intensivlashgan didaktik ta'minotlarni ta'lim jarayonida tadbiq qilish bilan izohlash mumkin. Bunda yoshlarni, asosan, kichikligidan boshlab kitobga oshno qilish, o'z fikrini erkin bayon qila olish imkoniyatini berish hamda ularni tinglash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularda paydo bo'layotgan yangi fikr va g'oyalarni qo'llab-quvvatlash ularda o'ziga bo'lgan ishonchni yanada ortishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslari haqida gap ketganda birinchi navbatda bosh qomusimiz bo'lmish konstitutsiyani e'tirof etib o'tish darkor. 2023-yil 30-aprelda xalq muhokamasi asosida yangi tahrirdagi konstitutsiyaviy qonun loyihasi maqullandi. Yangi taxrirdagi konstitutsiyaning 26-modadasiga muvofiq inson shani va qadr-qimmati daxilsizdir. Hech narsa ularning kamsitilishi uchun asos bo'lishi mumkin emas ekanligi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shavqatsiz, g'ayri insoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yohud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi hamda hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emasligi milliy qonunchiligimizda belgilanganligi nafaqat xotin-qizlarga balki harbir insonga tazyiq va zoravonlikning taqiqlanganligidan dalolatdir. Mazkur konstitutsiyaning 42-moddasi uchinchi qismiga muvofiq homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etilishi, ishdan bo'shatilishi va ularning ish haqqini kamaytirishni taqiqlanganligi mamlakatimizda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan yana bir e'tibordir. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2019-yil 2-sentyabrda O'zbekiston respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunning qabul qilingan bo'lib unga muvofiq zo'ravonlik deganda xotin -qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlik deb tarif berilgan shuningdek har bir zo'ravonlik turiga alohida tarif berilib unga ko'ra jinsiy zo'ravonlik deganda xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz



shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli, shuningdek zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash tushuniladi. Jismoniy zo'ravonlik deganda esa xotin-qizlarga nisbatan og'irligi turli darajada bo'lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko'rsatmaslik, zo'ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazishning o'zga choralarini qo'llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog'lig'i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli tushuniladi, ruhiy zo'ravonlik esa xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo'ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakat yoki harakatsizlikni tushunish mumkin. Shuningdek ushbu qonunda zo'ravonlikning shunday shakli ham e'tirof etilganki bu iqtisodiy zo'ravonlikdir. Iqtisodiy zo'ravonlik deganda xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo'ravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishga bo'lgan huquqini, mulk huquqini, ta'lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat yoki harakatsizlikni tushunishimiz mumkin bo'ladi.

Ushbu qonunga muvofiq yurtimizda olib borilayotgan xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishga doir davlat siyosatining yo'nalishlari sifatida xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi gender siyosatini, davlat dasturlarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilinishini ta'minlash, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish uchun samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etilishiga olib keladigan sabablar hamda shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish, tazyiq va zo'ravonlikning



oldini olish maqsadida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi zo'ravonlik deganda xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli, shuningdek zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash tushuniladi. Jismoniy zo'ravonlik deganda esa xotin-qizlarga nisbatan og'irligi turli darajada bo'lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko'rsatmaslik, zo'ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazishning o'zga choralarni qo'llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog'lig'i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo'ravonlik shakli tushuniladi, ruhiy zo'ravonlik esa xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohishirodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo'ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib k elgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakat yoki harakatsizlikni tushunish mumkin. Xususan xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan ximoya qiluvchi vakolatli davlat organi bu O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasi hisoblanib sohaga oid xotinqizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini va strategiyalarni tasdiqlash, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning xavfsizligini, jismoniy va ruhiy rehabilitatsiyasini hamda moslashuvini ta'minlash bo'yicha tuzilmalarni tashkil etish, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, kabi vakolotlarga ega.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining sohaqa oid vakolotlari xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi hududiy dasturlarni ishlab chiqadi tasdiqlaydi hamda amalga oshirish, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa



institutlari bilan hamkorlik qilish, hamda xotin-qizlarni huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilish kafolatlarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat ekanligi belqilangan. Xotin -qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishda vakolatli davlat organlaridan biri bu ichki ishlar organlaridir. Ichki ishlar organlari bu sohada xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy dasturlarni hamda qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish, tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, shu jumladan ularning sabablarini hamda shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralari ko'radi, xotin-qizlarga tazyiq o'tkazayotgan va ularga nisbatan zo'ravonlik sodir etgan shaxslar bilan muntazam asosda profilaktika ishlarini olib borish, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etilganligi yoki sodir etilishi tahdidi mavjudligi to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqish, tazyiq yoki zo'ravonlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxsga rasmiy ogohlantirish berish, himoya orderini berish, zo'ravonlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan o'z vakolatlari doirasida choralari ko'rish, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qilish kabi vakolatlarga ega. Himoya orderi bu tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxsga beriladi.

Tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxsga himoya orderining nusxasi beriladi. Shuningdek himoya orderini bergan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsni himoya orderining shartlari hamda uni bajarmaslik oqibatlari va zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturlaridan o'tish zarurligi to'g'risida xabardor qiladi hamda shaxs himoya orderini olish to'g'risidagi tegishli hujjatni imzolashni rad etgan taqdirda, himoya orderini topshirayotgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tomonidan xolislar ishtirokida dalolatnoma tuziladi. Tegishli hududda tazyiq va zo'ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tazyiq va zo'ravonlik fakti yoki ularni sodir etish xavfi aniqlangan paytdan e'tiboran 24 soat ichida himoya orderini o'ttiz kun muddatgacha beradi va ushbu order rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Agar tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchi hamda tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs bir joyda ishlasa yoki o'qisa, tegishli hududda tazyiq va zo'ravonlikning yakka tartibdagi profilaktikasini amalga oshiruvchi ichki ishlar organining mansabdor shaxsi tomonidan jabrlanuvchiga himoya orderi berilganidan keyin bir ish kuni ichida tazyiq va



zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining ish yoki o‘qish joyiga, agar tazyiq o‘tkazgan yoki zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs tashkilot rahbari bo‘lsa, yuqori turuvchi organga, jabrlanuvchi va tazyiq o‘tkazgan yoki zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs o‘rtasidagi bevosita aloqani taqiqlash to‘g‘risida taqdimnoma yuboriladi.

Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchi ishlayotgan yoki ta‘lim olayotgan tashkilot rahbari taqdimnomani olganidan keyin, uch ish kuni ichida jabrlanuvchi hamda tazyiq o‘tkazgan yoki zo‘ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo‘lgan shaxs o‘rtasidagi bevosita aloqani bartaraf etishga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradi. Agar xavf hali bartaraf etilmagan bo‘lsa, himoya orderining amal qilish muddati tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchining arizasiga ko‘ra ko‘pi bilan bir yilgacha muddatga jinoyat ishlari bo‘yicha sud tomonidan uzaytirilishi mumkin ekanligi belgilab qo‘yilgan Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki ayol zoti nozik hilqat sifatida hamisha e‘tibor va e‘tirofga loyiq zotdir. Xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni oldini olish har bir davrning jumladan bugungi kunning ham eng dolzarb va ustuvor vazifalaridan biridir. Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish chora-tadbirlari sifatida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, aholi o‘rtasida huquqiy targ‘ibot olib borish, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining statistik hisobi va hisobotini yuritish hamda ularni davlat statistika organlariga taqdim etish, fuqarolarni, ayniqsa xotin-qizlarni o‘z huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to‘g‘risidagi, shuningdek himoya qilish kafolatlari haqidagi axborot bilan ta‘minlash maqsadida axborot-ma‘rifiy faoliyatni amalga oshirish, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini aniqlashning samarali huquqiy mexanizmlarini joriy etish, tazyiq va zo‘ravonlik sodir etish xavfi bo‘lgan guruhlariga mansub shaxslarga yoki ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan oldini olish choralari amalga oshirish, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarga nisbatan ta‘sir ko‘rsatish choralari qo‘llash, aybdorlarni qonunda belgilangan javobgarlikka tortish muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan Adabiyotlar va manbalar:

1. O‘zbeliston respublikasining konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni, 02.09.2019 yildagi O‘RQ-561-son



2. O'zbekiston respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 2019-yil 9-yanvardagi 5816-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8- dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 29- apreldagi 5712-son farmoni.
5. Muxammedov O.X Huquqshunoslik asoslari Toshkent 2020-yil
6. A.Saidov, U Tadjixanov, X Odilqoriyev. Davlat va Huquq asoslari Toshkent 2002-yil.
7. Lexs uz.
8. Arxiv.uz
9. Ziyonet.uz.
10. <https://lex.uz/docs/-20596>

